“Mehr-muruvvat” hayriya jamoat fondi hisobot davridagi faoliyatining batafsil tavsifi.

Metan zaprafkalar, oshxonalar, super marketlar, benzin zaprafkalar, propan zaprafkalar, dorixonalar, bozorlarda umumiy hisobda jami 87 ta xayriya qutilari tashkil etilgan bo’lib, yil davomida 54 681 150 so’m mablag’ fond hisob raqamiga kelib tushdi. Shartnoma asosida onlayn platformalar orqali xayriya mablag’lari kelib tushdi. Jumladan “BRIO GROUP”dan 27 328 so’m, “UZPAYNET”dan 1 786 668 so’m, “PAYME”dan 112 851 967,37 so’m, “CLICK”dan 8 130 410.60 so’m, “UZUM BANK”dan 7 552 563.26 so’m. “Mehr-muruvvat”uyi qurilishi uchun Vodiy temir yo’l MCHJdan 20 000 000 so’m va O’zbekiston tumani tibbiyot hodimlaridan 14 869 193,28 so’m, fondga tegishli plastik kartasiga 1 000 000 so’m. Yuqorida ko’rsatilgan jami 201 201 400 so’m miqdorda xayriya mablag’lari hisobot davrida kelib tushdi.

2024-yil davomida: Dang’ara tumani Qizilmusht qishlog’ida boquvchisini yo’qotgan oilalar uchun 5 qavatli 20 ta xonadon “Mehr-muruvvat” uyi qurilishi davom ettirilib, binoning tashqi qismidagi shuvoq ishlari, jami 65 dona “Akfa” brendi ostida tayyorlangan romlar, yerto’la uchun 16 dona fortichkalar, tashqi fasad ishlari amalga oshirildi. Umumiy hisobda “Mehr-muruvvat” uyi qurilishi uchun 161 160 000 so’m mablag’ sarflandi. Bundan tashqari 38 778 000 so’mlik mahsulot ko’rinishidagi hayriya qurilish mollari qabul qilinib, “Mehr-muruvvat” uyi qurilishiga ishlatildi.

2024-yil davomida: Nogironligi bo’lgan, temir, ayollar, yoshlar daftarida turuvchi va ehtiyojmand, boquvchisini yo’qotgan, bemor, yolg’iz yashovchi 51 nafar fuqaroga 11 791 900 so’mlik oziq-ovqat mahsulotlari Qo’qon dehqon bozoridan harid qilinib, beg’araz tarqatib berildi, 4 nafar bemor fuqaroga 2 705 500 so’mlik dori-darmonlar harid qilib berildi, 2 nafar fuqaroga jami 900 000 so’m moddiy yordam ko’rsatildi, 1 nafar fuqaroga 1 900 000 so’mlik nogironlik aravachasi olib berildi. Yuqorida ko’rsatilgan yordamlar jami 17 297 400 so’mni tashkil etdi.

2024-yil davomida: Qog’ozgarlik ko’chasi 6/6-uyda yashovchi fuqaro Erkaboyeva Xolidaxonning xonadonida baxtsiz hodisa tufayli katta yong’in sodir bo’lgan. Hodisa natijasida ushbu fuqaroning xonadoni deyarli barcha qismi yaroqsiz holga kelgan. Ushbu fuqaroning xonadonini ta’mirlash uchun zaruriy qurilish mahsulotlari uchun fond hisob raqamidan 21 427 000 so’m, tashkilotga tegishli xayriya plastik kartasidan 1 000 000 so’m mablag’ yechib, sarflandi. Bundan tashqari qo’li ochiq tadbirkorlar, sahiy insonlar tomonidan 78 573 000 so’mlik mahsulot ko’rinishidagi xayriya-qurilish mahsulotlari fond homiylari orqali Erkaboyeva Xolidaxonning xonadoni ta’mirlanib, yashash uchun foydalanishga topshirildi.

2024-yil davomida: Kimligini oshkor qilishni istamagan homiylar tomonidan 3 nafar boquvchisini yo’qotgan oilalarga 2 500 000 so’mdan, 5 nafar oilaga 1 250 000 so’mdan, umumiy hisobda 13 750 000 so’m beg’araz moddiy yordam ko’rsatildi.

2024-yil davomida: May oyida boquvchisini yo’qotgan oilalar G’ofurova Ziyoda hamda Rahimova Muqaddaslarga 2 nafar ismini oshkor qilishni istamagan qo’li ochiq, sahiy tadbirkorlar ro’para qilindi va ular otaliqlariga olib G’ofurova Ziyodaga har oy ijara to’lovi

uchun 700 ming so’mdan, Rahimova Muqaddasga esa 1 million so’mdan amaliy yordam ko’rsatishlarini ma’lum qilishdi va ijara to’lovi uchun moddiy pul mablag’larini har oyda homiylarning mahsus vakillari yuqoridagi boquvchisini yo’qotgan oilalarga yetkazib berilishdi. Umumiy hisobda fond orqali ijara to’lovi uchun 15 300 000 so’m moddiy yordam ko’rsatildi.

“Mehr-muruvvat” xayriya jamoat fondi 2024-yil davomida fond hisob raqami orqali 201 201 400 so’m 146 401 000 so’mlik mahsulot ko’rinishidagi va boshqa ko’rinishdagi xayriya ishlari amalga oshirildi. Yil davomida 347 602 400 so’mlik xayriya va homiylik ishlari amalga oshirildi.